G‘ULOMJON HOJIQULOVNING IJODIY MEROSI VA IJROCHILIK MAHORATI

Samandarov Nuriddin Mahammadjon o‘g‘li
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti magistrant

Salohiddin Azizboyev
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati institute ilmiy rahbar
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20256041

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek milliy musiqa san’atining yirik namoyandalaridan biri G‘ulomjon Hojiqulovning ijodiy merosi, ijrochilik mahorati va pedagogik faoliyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Unda san’atkorning shakllanish jarayoniga ta’sir ko‘rsatgan omillar — oilaviy muhit, ustoz-shogird an’analari, an’anaviy ijrochilik maktabi va sahna tajribasi o‘rganiladi. Shuningdek, uning g‘ijjak ijrochiligi, bastakorlik faoliyati hamda teatr va ta’lim tizimidagi xizmatlari musiqiy merosni rivojlantirishdagi muhim bosqich sifatida baholanadi.
Kalit so‘zlar: g‘ijjak ijrochiligi, maqom san’ati, an’anaviy musiqa, ustoz-shogird an’anasi, bastakorlik, dirijyorlik.

Abstract: This article analyzes the creative legacy, performance mastery, and pedagogical activity of G‘ulomjon Hojiqulov, one of the prominent representatives of Uzbek national music. It examines the factors influencing his artistic development, including family environment, master-apprentice traditions, traditional performance schools, and stage experience. Furthermore, his contributions as a gijjak performer, composer, conductor, and educator are evaluated as significant elements in the development and preservation of national musical heritage.
Keywords: gijjak performance, maqom art, traditional music, master-apprentice tradition, composition, conducting.

Аннотация: В данной статье рассматриваются творческое наследие, исполнительское мастерство и педагогическая деятельность одного из выдающихся представителей узбекского национального музыкального искусства Гулямжона Хожикулова. Анализируются факторы, повлиявшие на формирование его творческой личности, включая семейную среду, традиции «устоз-шогирд», традиционные исполнительские школы и сценический опыт. Также оценивается его деятельность как исполнителя на гиджаке, композитора, дирижёра и педагога в развитии национального музыкального наследия.
Ключевые слова: гиджак, маком, традиционная музыка, устоз-шогирд, композитор, дирижёр.

Kirish

O‘zbek milliy musiqa san’ati ko‘p asrlik an’analar, ustoz-shogird davomiyligi va ijrochilik maktablari asosida shakllangan murakkab va serqirra tizimdir. Ushbu tizimda har bir yetuk san’atkor o‘zining ijodiy merosi orqali milliy musiqa taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi. Ana shunday san’atkorlardan biri G‘ulomjon Hojiqulov bo‘lib, u g‘ijjak ijrochisi, xonanda, bastakor va pedagog sifatida keng qamrovli faoliyat olib borgan.

Mazkur maqolaning maqsadi - G‘ulomjon Hojiqulovning ijodiy shakllanish jarayoni, ijrochilik uslubi va pedagogik faoliyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning milliy musiqa san’ati rivojidagi o‘rnini asoslab berishdan iborat

G‘ulomjon Hojiqulov o‘zbek milliy musiqa ijrochiligida munosib o‘rin egallagan mohir sozanda, xonanda va nozikta’b bastakor sifatida tanilgan. U Andijon g‘ijjak ijrochilik muhitining yetuk vakillaridan biri bo‘lib, an’anaviy maktab tamoyillarini saqlash va rivojlantirishda faol ishtirok etgan san’atkor hisoblanadi. Unga “O‘zbekiston xalq artisti” unvoni berilgani ham uning milliy musiqa san’ati rivojiga qo‘shgan hissasining e’tirofi sifatida baholanadi.

G‘ulomjon Hojiqulov 1928-yilda Andijon viloyatining Xo‘jaobod tumani Buloqboshi qishlog‘ida dehqon oilasida tavallud topgan. Oila muhitida professional musiqa ta’limi bo‘lmagan bo‘lsa-da, san’atga nisbatan ixlos mavjud edi. Otasining cholg‘u musiqasiga mehri va onasining qo‘shiq aytishga moyilligi bola qalbida musiqaga nisbatan ilk ruhiy zaminni shakllantirgan deb qarash mumkin. Bu holat ijodkor shaxsning tabiiy iqtidori oilaviy ma’naviy muhit ta’sirida kamol topishini ko‘rsatadi.

U o‘rta ta’limni mahalliy maktabda olgan. Shu bilan birga, maktab qoshidagi musiqa to‘garagida qatnashib, turli cholg‘ular bilan tanishgan va ijro malakalarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirgan. Aynan shu davr uning ijrochilik qobiliyati shakllana boshlagan ilk bosqich sifatida ahamiyatlidir.

Yetuk sozandaning ijodiy shakllanishida uning tog‘asi - musiqaga ixlosmand va amaliy tajribaga ega bo‘lgan Ergash Abdurahmonov muhim o‘rin tutgan. U nafaqat g‘ijjak va skripka chalishni yaxshi bilgan, balki yosh avlodga ustozlik qilish salohiyatiga ham ega edi. G‘ulomjon Hojiqulovning musiqaga qiziqishini payqagan holda, uni maqsadli ravishda tarbiyalashga kirishgan. Bu jarayon ustoz-shogird an’anasi asosida kechgan bo‘lib, an’anaviy ijrochilik maktabining davomiyligini ta’minlagan omillardan biri sifatida qaraladi.

Shunday qilib, havaskor sozandaning san’atkor sifatida shakllanishi tabiiy iqtidor, oilaviy ma’naviy muhit va maqsadli ustozlik ta’limi uyg‘unligida amalga oshgan. Bu omillar keyinchalik uning ijro uslubida milliy an’analarga tayanish, nozik intonatsion ifoda va hissiy chuqurlik kabi xususiyatlarning namoyon bo‘lishiga zamin yaratgan.

G‘ulomjon Hojiqulovning ijodiy kamolot jarayonida an’anaviy musiqa muhiti va ustozlar davrasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan. Uning ilk ommaviy ijrosi tasodifiy holatda, ya’ni maxsus tayyorgarliksiz aytilgan g‘azal bilan bog‘liq bo‘lsa-da, bu chiqish uning tabiiy iste’dodi va musiqiy xotirasi kuchli ekanini namoyon etgan. Mazkur holat an’anaviy ijrochilik amaliyotiga xos bo‘lgan improvizatsiyaviy xususiyatni ham tasdiqlaydi.

O‘zbek an’anaviy musiqa amaliyotida mavjud bo‘lgan muhim tamoyillardan biri - mavjud kuyga yangi she’riy matnni moslashtirish yoki g‘azalni muayyan kuy asosida talqin qilish an’anasidir. Ustoz Hojiqulov ham ushbu ijrochilik uslubiga tayanadi. U g‘azalni Jo‘raxon Sultonov ijrosida mashhur bo‘lgan kuy asosida talqin qilib, uni yangi badiiy mazmun bilan boyitadi. Bu jarayon an’anaviy kuy va yangi matn uyg‘unligini ta’minlash orqali musiqiy merosning uzviy davomiyligini ko‘rsatadi.

Ijrodan so‘ng san’at ahli va tinglovchilar tomonidan bildirilgan e’tirof Hojiqulovning ijodiy faoliyatida muhim ruhiy omil bo‘lgan. Bu holat ijodkor shaxsning shakllanishida ijtimoiy muhit va ma’naviy rag‘batlantirishning o‘rni katta ekanini ko‘rsatadi.

1945 - yilgacha davom etgan ushbu ijodiy faoliyat davri atoqli sozanda uchun tajriba va o‘quv maktabi vazifasini o‘tagan. Bu muhitda turli ijrochilik maktablari vakillari faoliyat yuritgani bois, har bir sozanda va xonanda uchun o‘zaro tajriba almashish imkoniyati mavjud edi. Amaliy ijro jarayonida turli uslubiy yo‘nalishlarni kuzatish, ularni qiyoslash va o‘ziga xos jihatlarini anglash imkoniyati vujudga kelgan.

Hojiqulov musiqa san’atidagi turli ijro uslublarini farqlash va ularning badiiy-ifodaviy xususiyatlarini anglashga intilgan. Ayniqsa, Jo‘raxon Sultonov va Ma’murjon Uzoqov kabi

yirik xonandalar ijrosiga bo‘lgan qiziqishi uning uslubiy tafakkurini boyitgan. Ushbu san’atkorlar xonishidagi maqomga tayangan intonatsion tuzilish, nozik ornamental bezaklar va hissiy ta’sirchanlik Hojiqulov ijrosida ham ma’lum darajada o‘z aksini topgan.

Shunday qilib, mazkur davrni Hojiqulov ijodiy biografiyasining shakllanish bosqichi sifatida baholash mumkin. Bu bosqichda u an’anaviy ijrochilik maktablarining uslubiy qonuniyatlarini amaliyot orqali o‘zlashtirgan, musiqiy tafakkurini shakllantirgan va keyingi ijodiy faoliyati uchun mustahkam poydevor yaratgan.

G‘ulomjon Hojiqulov ijrochilik uslubining shakllanishida bir nechta yirik san’atkorlarning ta’siri uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. Xususan, Komiljon Jabborov, G‘anijon Toshmatov va To‘xtasin Jalilov kabi sozandalarning cholg‘u ijrochiligidagi tajribasi uning musiqiy tafakkuriga chuqur ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, Jo‘raxon Sultonov va Ma’murjon Uzoqov xonishidagi vazminlik, ifoda madaniyati va asarga ehtirom bilan yondashish kabi jihatlar Hojiqulovning badiiy qarashlarini boyitgan.

Ustozlar ta’sirida u xonishdagi salobat, intonatsion tozalik va hissiy muvozanatni o‘zlashtirgan. Bu omillar keyinchalik uning g‘ijjak ijrosida ham namoyon bo‘lib, kuyni vazmin va mazmunli talqin etish uslubini shakllantirgan.1945 - yilda san’atkor o‘z qishlog‘iga qaytgach, avval mahalliy teatr jamoasida, so‘ngra Andijondagi madaniy ansamblda sozanda va musiqa rahbari sifatida faoliyat yuritgan. Bu davr uning amaliy ijro mahoratini mustahkamlagan va tashkiliy qobiliyatini namoyon etgan bosqich hisoblanadi.

1949 - yildan boshlab u Andijon shahridagi Y.Oxunboboyev nomidagi Andijon viloyat musiqali drama va komediya teatri jamoasida faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu ijodiy muhit uning xalq musiqa merosini o‘rganish, uni sahnaviy talqin qilish va yangi asarlar yaratishda amaliy laboratoriya vazifasini o‘tagan. Uzoq yillik faoliyati davomida u milliy musiqiy merosni targ‘ib etish va boyitishga qaratilgan izchil ijodiy ish olib borgan.

Shu tariqa, ustozlar ta’siri, amaliy sahna tajribasi va teatr muhiti Hojiqulov ijodiy uslubining shakllanishida hal qiluvchi omil bo‘lgan.

Andijon sahna muhiti G‘ulomjon Hojiqulovning kasbiy shakllanish jarayonida hal qiluvchi o‘rin tutdi. Teatr tizimidagi amaliy faoliyat unga musiqaning sahnaviy funksiyasini chuqur anglash, dramatik harakat bilan ohang uyg‘unligini ta’minlash va ijro jarayonini tashkil etish kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantirish imkonini berdi.

U spektakllar uchun musiqiy materialni tanlashda badiiy mantiq va obraz tabiatiga tayanar, har bir sahna epizodiga mos intonatsion yechim topishga intilar edi. Bu jarayonda u nafaqat ijrochi, balki musiqiy rahbar sifatida ham faol ishtirok etdi. Ijrochilar bilan ishlash, ularning ovoz imkoniyatlarini hisobga olish va musiqiy partiyalarni individual xususiyatlarga moslashtirish orqali sahna asarlarining ta’sirchanligini oshirishga erishdi.

Bastakorlik faoliyatining boshlanishi teatr jamoasi uchun amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etdi. Chunki u tayyor musiqiy namunalardan foydalanish bilan cheklanib qolmay, sahna qahramonlarining ruhiy holati va dramatik vaziyatini hisobga olgan holda yangi kuy va qo‘shiqlar yarata boshladi.

Bu esa musiqaning spektakl tuzilmasidagi o‘rnini mustahkamlab, uni dramaturgik vosita darajasiga ko‘tardi.

Xalq kuylarini qayta ishlash va ularni sahnaviy shaklga solish borasidagi mahorati esa ustozlik an’analari bilan bog‘liq bo‘lib, ayniqsa To‘xtasin Jalilov maktabi ta’sirida shakllangan. Mazkur tajriba musiqiy merosni ijodiy qayta talqin qilish, uni yangi sharoitga moslashtirish va badiiy jihatdan boyitish imkonini berdi.

Ustoz ijodida teatr faoliyati ijodiy tafakkurining rivojlanishida, uning sozandalik va bastakorlik qobiliyatining mukammallashuvida asosiy amaliy poydevor vazifasini bajargan.

G‘ulomjon Hojiqulovning ijodiy faoliyati nafaqat ijrochilik va bastakorlik, balki musiqiy rahbarlik va pedagogik yo‘nalishlarda ham izchil davom etdi. U Andijon musiqali drama va komediya teatrida uzoq yillar davomida faoliyat yuritib, 1990-yillardan bosh

dirijyor sifatida jamoaning badiiy saviyasini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shdi. Dirijyorlik faoliyatida u orkestr va ansambl ijrosida uslubiy yaxlitlikni ta’minlash, sahnaviy asarlarda musiqiy ifoda ta’sirchanligini oshirishga alohida e’tibor qaratdi. Bu jarayonda uning shogirdlari va ijodiy jamoasi doimiy hamkor sifatida qatnashdi.

1998 yilda u Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universitetiga taklif etildi va oliy ta’lim tizimida faoliyat boshladi. Universitetdagi pedagogik faoliyati davomida milliy maqom san’atini amaliy yo‘nalishda o‘qitishga e’tibor qaratdi. Xususan, “Buzruk” maqomining bir necha qismlarini, shuningdek, Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llariga mansub “Miskin” va “Navro‘zi Ajam” turkumlarini talabalarga o‘rgatish orqali ularda maqom ijrochiligi ko‘nikmalarini shakllantirdi.

Hojiqulovning ta’lim jarayonidagi yondashuvi nazariya va amaliyot uyg‘unligiga asoslangan bo‘lib, u talabalar ishtirokida sahnaviy asarlar yaratish va ularni namoyish etish orqali ijodiy muhitni shakllantirdi. Xususan, “Layli va Majnun” musiqali sahna asarining qo‘yilishi uning rahbarligida amalga oshirilib, talabalar uchun amaliy maktab vazifasini o‘tadi.

2002 - yilda u Qirg‘iziston Respublikasidagi Bobur nomidagi Osh viloyati musiqali drama teatri jamoasiga ijodiy maslahatchi sifatida taklif etildi. Bu yerda “Nodira” spektaklini tiklash jarayonida musiqiy yechimlarni takomillashtirish va ijro sifatini oshirishda ishtirok etdi. Shuningdek, Bishkek shahrida o‘tkazilgan teatrlar festivalida dirijyor sifatida qatnashib, jamoaning muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minladi. Shu tariqa, Hojiqulovning rahbarlik va pedagogik faoliyati milliy musiqa an’analarini sahna va ta’lim tizimi orqali rivojlantirishga xizmat qilgan muhim bosqich sifatida baholanadi.

G‘ulomjon Hojiqulovning O‘sh shahridagi teatr faoliyati nafaqat sahnaviy asarlar bilan cheklanib qolmay, balki yakkaxon ijrochilarni an’anaviy uslubda tayyorlash bilan ham xarakterlanadi. U milliy xonish an’analarini izchil tarzda o‘rgatish orqali ijrochilarda maqomga xos intonatsion tozalik, uslubiy muvozanat va ornamental bezaklarni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirdi.

Xususan, teatr xonandalari Saida Murodova va Mavluda Boymatovaga “Qadimiy Ushshoq” hamda “Mo‘g‘ulchayi Dugoh” kabi maqom yo‘llarini puxta o‘zlashtirishda uslubiy yo‘l yo‘riq berdi. Ushbu tayyorgarlik natijasida ijrochilar 2003 yil Samarqand shahrida o‘tkazilgan Sharq taronalari xalqaro musiqa festivalida munosib ishtirok etdilar. Ularning chiqishlari hakamlar hay'ati tomonidan ijobiy baholanib, yuqori o‘rinlar bilan taqdirlandi. Bu holat Hojiqulovning ustozlik mahorati va an’anaviy ijrochilik maktabini amaliyotda samarali tatbiq eta olganini ko‘rsatadi.

Ayni vaqtda u Andijonda faoliyat yurituvchi “Meros” maqom ansamblida bosh maslahatchi sifatida ish olib borib, yosh ijrochilarni milliy musiqiy meros ruhida tarbiyalashga hissa qo‘shmoqda. Mazkur faoliyat uning ko‘p yillik ijodiy tajribasini izchil ravishda keyingi avlodga yetkazishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Shu tariqa, Hojiqulovning xalqaro va mahalliy miqyosdagi ustozlik faoliyati milliy maqom ijrochiligini targ‘ib etish va uning nufuzini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, G‘ulomjon Hojiqulov o‘zbek milliy musiqa san’ati, xususan an’anaviy ijrochilik maktabi rivojida muhim o‘rin tutgan yirik san’atkorlardan biri hisoblanadi. Uning ijodiy faoliyati tabiiy iste’dod, boy ma’naviy muhit va ustoz-shogird an’analari asosida shakllanib, keyinchalik mukammal ijrochilik uslubiga aylangan. Hojiqulov ijrosida milliy an’analarga sodiqlik, nozik intonatsion ifoda, hissiy chuqurlik va badiiy mukammallik uyg‘un holda namoyon bo‘ladi. San’atkorning ijodiy shakllanishida ustozlar ta’siri, sahna tajribasi va teatr muhiti muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa,

uning Andijon teatridagi faoliyati musiqaning sahnaviy talqini, dramatik ifoda va ijro madaniyatini rivojlantirishda muhim tajriba maktabi bo‘ldi. Shu bilan birga, uning bastakorlik faoliyati ham milliy musiqa merosini boyitishga xizmat qilgan.

Hojiqulovning pedagogik va rahbarlik faoliyati esa milliy musiqa an’analarining uzluksizligini ta’minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. U yosh avlodni maqom san’ati ruhida tarbiyalash, ularni amaliy ijrochilikka yo‘naltirish orqali o‘zbek musiqa madaniyatining davomiyligini ta’minlashga katta hissa qo‘shgan. Xususan, uning xalqaro miqyosdagi faoliyati milliy san’atimizning nufuzini oshirishda muhim rol o‘ynagan. Umuman olganda, G‘ulomjon Hojiqulovning ijodiy merosi nafaqat o‘z davri, balki bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, u o‘zbek milliy musiqa ijrochiligi tarixida alohida o‘rin egallaydi. Uning san’atdagi yutuqlari va ustozlik faoliyati kelajak avlodlar uchun muhim ilmiy-amaliy manba sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo‘ydinov J.Q. Andijon an’anaviy ijrochilik san’ati shakllanishi (G‘ulomjon Hojiqulov ijro maktabi misolida). Magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. Qodirov N. G‘ijjak ijrochilik maktabi. T., 2011.
3. Qodirov N. G‘ijjak ijrochiligida mahalliy uslublar. – Toshkent, 2016.
4. Ahmedova N.A. G‘ulomjon Hojiqulov. Monografik o‘quv-uslubiy qo‘llanma. O‘zbek tilida. –Toshkent, 2008.
5. Jabborov A.H. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. – T.: Yangi asr avlodi, 2004.
6. Usmonov M.M. Maqom cholg‘u ijrochiligida Andijon g‘ijjakchilik maktabining ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023.
7. Mirzaahmedov A.A. G‘ijjak cholg‘usining mahalliy ijro uslublari (Farg‘ona vodiysi maktablari misolida). Magistrlik dissertatsiyasi. – Toshkent, 2022